

“TASDIQLANGAN”
“O’zbekekspertiza” AJ
aksiyadorlarining 2024 yil
“19 ” noyabrdagi navbatdan
tashqari umumiy yig’ilish qarori
4/2024 - sonli bayonining
2-ilovasi

**“O’zbekekspertiza” aksiyadorlik jamiyatining
KUZATUV KENGASHI TO’G’RISIDAGI
N I Z O M I
(yangi tahrirda)**

Toshkent - 2024 yil

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksidorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021 yil 29 martdagi 166-son qarori hamda "O'zbekekspertiza" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) ustaviga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Jamiyat Kuzatuv kengashining maqomini, vakolatlarini, huquq va majburiyatlarini hamda uning a'zolarini saylash va ularning ishlash tartibini belgilaydi.

1.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi qonunchilik va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

1.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik, Jamiyat Ustavi va mazkur Nizomga asosan amalga oshiradi.

II. Kuzatuv Kengashining vakolat doirasi

2.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 (besh) kishidan iborat.

2.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

2.2.1. Jamiyatning biznes - rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora - tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

2.2.2. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan Qonunchilikda nazarda tutilgan ba'zi xollar mustasno;

2.2.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

2.2.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat Aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

2.2.5. Mol - mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

2.2.6. Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalasini ma'qullash va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish;

2.2.7. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasini ma'qullash va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish;

2.2.8. Jamiyatning ijroiya organining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

2.2.9. Jamiyatning rahbar lavozimiga o'tkaziladigan tanlov reglamentini tasdiqlash, ijro organi rahbari lavozimga tanlov e'lon qilish va o'tkazish;

2.2.10. Jamiyatning rahbar lavozimiga tanlov o'tkazilib jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida tasdiqlangunga qadar Jamiyat ijroiya organi rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchisini tayinlash;

2.2.11. Jamiyat Ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini ma'qullash va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish;

2.2.12. Korporativ kotiyabiyat mudirini tayinlash va uning faoliyati tartibini

belgilovchi nizomni tasdiqlash;

2.2.13. Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullash;

2.2.14. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

2.2.15. Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

2.2.16. Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

2.2.17. Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan o'rnatilgan tartibda va maqsadlarda foydalanish;

2.2.18. Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular Aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi);

2.2.19. Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

2.2.20. Qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

2.2.21. Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

2.2.22. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan Aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

2.2.23. Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

2.2.24. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan Aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

2.2.25. Aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini Qonun hujjatlarida tartibda belgilash;

2.2.26. Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

2.2.27. Homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish;

2.2.28. Qonunda nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

2.2.29. Jamiyat tomonidan ochiqqlangan ma'lumotlar nazoratini olib boradi;

2.2.30. Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash;

2.2.31. Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va haq to'lash, Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalarini, shuningdek zaruriyatga kura boshqa qo'mitalarni tashkil qilish;

2.2.32. Jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

2.2.33. Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashki qarzlarni optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

2.2.34. Jamiyat ijro organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan Aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga

oshirganligi uchun alohida mukofot yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilash;

2.2.35. Jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi kuchmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

2.2.36. Jamiyat tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish;

2.2.37. Jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

2.2.38. Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarni optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

2.2.39. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga amaldagi Qonun hujjatlari va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish xam kiritilishi mumkin.

2.2.40. Qonunchilik va Jamiyat Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

2.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijro organiga o'tkazilishi mumkin emas.

III. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash va vakolatini muddatidan ilgari tugatish

3.1. Jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zolari qonunchilikda va jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi tashkilotlar uchun korporativ boshqaruv qoidalarida aks ettirilgan mustaqil a'zo mezonlariga muvofiq bo'lgan Kuzatuv kengashining kamida bir nafar (ammo ustavda ko'zda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 20 foizidan kam bo'lmagan) a'zosi – mustaqil a'zo hisoblanadi hamda u jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi.

3.2. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

3.3. Jamiyat bosh direktori, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

3.4. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

3.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

3.6. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning Kuzatuv Kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

3.7. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

3.8. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi u saylangan kundan boshlab,

jamiyatning affillangan shaxsi deb e'tirof etiladi. Shunga muvofiq, u saylangan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan shaklga muvofiq belgilangan ma'lumotlarni batafsil ko'rsatgan holda o'zining affillanganligi to'g'risida jamiyatni yozma shaklda xabardor qilishi shart.

3.9. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish qonunchilikda va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

– Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi hollarda o'z vazifalaridan ozod etilishi mumkin:

– o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, jamiyatga zarar etkazsa;

– Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlariga zid ravishda insofsiz va mantiqsiz harakat qilsa;

– Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni, shu jumladan insayderlik axborotlarni oshkor etish, ularning uchinchi shaxslar tomonidan o'z maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ysa;

– Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislarida, Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarning majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmasa;

– U tuzilishidan manfaatdor shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirsa;

– Aksiyador tomonidan uning o'rniga boshqa nomzod taqdim etilsa.

IV. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar

4.1. Kuzatuv Kengashining a'zosi sifatida benuqson ishchanlik va shaxsiy obro'-e'tiboriga ega bo'lgan hamda Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli qarorlarni qabul qilish va funksiyalarini samarali bajarish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan shaxslar tavsiya etiladi.

– Quyidagi malaka talablariga ega bo'lgan shaxs jamiyat Kuzatuv kengashi a'zoriga nomzod sifatida tavsiya etilishi mumkin:

– oliy ta'lim yoki ilmiy darajaning, yoki boshqaruv (menejment) sohasida qo'shimcha ta'limi mavjud bo'lgan;

– davlat yoki xo'jalik boshqaruv organlari aktivlarini boshqarish sohasida va/yoki jamiyat faoliyatiga tegishli bo'lgan tarmoqda ish tajribasiga ega;

– rahbar lavozimlarida, shu jumladan Kuzatuv kengashlari tarkiblarida ish tajribasi mavjud;

– turli kollegial organlarda ishtirok etish, shu jumladan uning Kuzatuv kengashi qo'mitalarida a'zoliqi bilan bog'liq maxsus ko'nikmalar (kuchli kommunikativlik ko'nikmalari, faoliyatni shaffoflik, xolislik, konstruktivlik va professionalizm tamoyillari asosida amalga oshirish uchun zarur sifatlar)ga ega bo'lgan;

– O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi qoshidagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lgan.

V. Kuzatuv Kengashining raisi

5.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy

soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

5.2. Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

5.3. Jamiyat Kuzatuv Kengashining raisi:

- Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi;
- Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;
- Kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi;
- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorolari ijrosi bo'yicha buyruqlar va xatlar chiqarishi mumkin.

5.4. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

VI. Kuzatuv Kengashining majlislarini tashkil etish va o'tkazish tartibi

6.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining Majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat Kuzatuv kengashi yoki ijro organi a'zosining, shuningdek Jamiyat Ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi.

6.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarini tashkil etish va o'tkazish puxta ishlangan reja asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunday rejani Kuzatuv kengashining barcha a'zolari, ijro organi hamda, zarurat tug'ilganda, jamiyatning auditori va ichki audit xizmatidan kelib tushgan takliflar asosida Kuzatuv kengashining raisi shakllantiradi.

6.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari Kuzatuv kengashi majlislarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda ishtirok etish uchun etarli darajada vaqt ajratishlari lozim.

6.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi, bunda majlisda majburiy tartibda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

– Jamiyat ijro organining jamiyatning biznes-rejasini bajarilishi to'g'risidagi, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlari to'g'risidagi, jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi, jamiyat asosiy (ustavdagi) faoliyati bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan sho"ba xo'jalik jamiyatlari hamda filiallari (vakolatxonalar) faoliyati to'g'risidagi, jamiyat tomonidan tijorat maqsadlari va notijorat maqsadlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlari;

– jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarining transformatsiya, amalga oshirilgan xaridalar bo'yicha hisobotlari;

– Ichki audit xizmatining hisoboti;

– Kuzatuv kengashi huzurida tashkil etilgan strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, audit qo'mitasi, tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha xulosa va tavsiyalari.

6.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining (75%) yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

6.6. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv Kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek jamiyat ijro organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

6.7. Jamiyat Kuzatuv Kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

6.8. Quyidagi qarorlar jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan **bir ovozdan** qabul qilinadi:

- Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish to'g'risidagi qaror;
- Jamiyatning affillangan shaxslari bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror;
- Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror (ushbu band jamiyat ustaviga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashiga bunday vakolat berilgan bo'lsa yoziladi);
- sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinadigan qarorlar.

6.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

6.10. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

6.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

6.12. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari hamda majlis kotibi tomonidan imzolanadi. Kuzatuv kengashi a'zolari majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

6.13. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislariga kotiblik qilish va bayonnoma yuritish vazifasini bajaruvchi shaxsni belgilaydi. Bunda, Kuzatuv kengashi kotibi

sifatida korporativ kotibiyat mudiri, qimmatli qog'ozlar bo'yicha mutaxassis, korporativ boshqaruv bo'limi boshlig'i yoki boshqa mutaxassis belgilanishi mumkin.

6.14. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Bunda Kuzatuv kengashining majlisida hozir bo'lmagan Kuzatuv kengashi a'zosining majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha yozma tarzda bergan fikri inobatga olinadi hamda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan (telefon, elektron aloqa, ijtimoiy tarmoqlarning messenjerlari va h.k.) foydalangan holda Kuzatuv kengashi a'zosining yozma fikri tezkor tarzda yo'llanishi va olinishi mumkin. Jamiyat Kuzatuv Kengashining majlisi sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazilgan taqdirda, majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi.

6.15. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi masofadan turib axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokonferens-alloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilishi mumkin, bunda majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishlari va ular bo'yicha ovoz berishlari mumkin. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi videokonferens-alloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib o'tkazilgan taqdirda, Majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi, ushbu majlis sirdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan deb e'tirof etilmaydi.

6.16. Har chorakda ijro organining hisobotini eshitish bo'yicha kuzatuv kengashining majlislarini **sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.**

6.17. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni jamiyatning ijro organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot jamiyatning ijro organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

VII. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari

7.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

- Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;
- Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davrda jamiyatning faoliyati natijalari, uni rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;
- Jamiyatga, shuningdek, uning sho"ba va tobe yuridik shaxslariga oid har qanday axborot (hujjat va materiallar)ni jamiyat ijro organidan talab qilish va olish;
- kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Kuzatuv kengash Majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;
- Kuzatuv kengashi Majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish;
- Kuzatuv kengashi va jamiyatning boshqa kollegial organlari majlislari bayonnomalari bilan tanishish va ularning nusxalarini olish;
- qonunchilikda va jamiyatning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashda ishlagan davri uchun haq va (yoki) xarajatlarining kompensasiyasini olish.

7.2. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona ish

tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi jamiyat hujjatlarini oshkora qilmasliklari lozim.

7.3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mavqeini va jamiyat faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.

7.4. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa Kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan xolda Kuzatuv kengashini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli.

7.5. Affillangan shaxs bo'lgan Kuzatuv kengashining a'zosi jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirgi yuborish orqali jamiyatni xabardor etishi shart.

7.6. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatganlik uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

7.7. Kuzatuv kengashi a'zolari jamiyat imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, jamiyatning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

7.8. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga majburdirlar.

7.9. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi fidutsiar majburiyatlarni bajarishlari lozim:

– jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati — Kuzatuv kengashi a'zosidan vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

– sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati — Kuzatuv kengashi a'zolaridan, birinchi navbatda, korxonalar manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

– lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati — Kuzatuv kengashi a'zolaridan korxonaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish;

– mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati — Kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

VIII. Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

8.1. Jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

8.2. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

8.3. Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok

etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

8.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga etkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

8.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilar natijasida jamiyatga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

- chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;
- qonunchilikda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;
- Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

IX. Kuzatuv Kengashining qo'mitalari

10.1. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va jamiyatning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etiladi.

10.2. Jamiyatda Kuzatuv kengashi qarori bilan quyidagi qo'mitalar tashkil etiladi:

- Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi;
- Audit qo'mitasi;
- Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi;

10.3. Barcha qo'mitalarning faoliyati qo'mita tarkibi, vakolatlari, ish tartibi hamda a'zolarining huquq va majburiyatlari kabi qoidalarni o'z ichiga olgan ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi.

10.4. Qo'mitalar tarkibi Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'ladi. Zarur hollarda qo'mitalar ishiga jamiyat ijro organlari a'zolari, jamiyat xodimlari va tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.

10.5. Jamiyat kuzatuv kengashining strategiya va investitsiyalar qo'mitasi raisi uning mustaqil a'zolari orasidan tayinlanadi va mazkur qo'mitaga korxonaning transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarini doimiy boshqarish vazifalari yuklatiladi.

10.6. Qo'mitalar a'zolari Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining tavsiyasi asosida Kuzatuv kengashi a'zolaridan ularning vakolat muddati davriga ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi qo'mita a'zolari orasidan qo'mita raisini tayinlaydi.

10.7. Qo'mita majlisida uning a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok qilsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda qo'mita raisi ishtirok etishi shart. Majlisda qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Har bir qo'mita a'zosi bir ovozga ega.

10.8. Qo'mitaning qarori majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va u ovoz berishda qatnashgan a'zolari tomonidan imzolanadi.

X. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi

11.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak,

ushbu a'zo har yili qayta saylanishi mumkin. Bunda davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining ulushi ustun bo'lsa, nomzod ko'rsatish hamda Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi bo'yicha ovoz berish davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

11.2. Quyidagi shaxs Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 76- moddasida mustaqil a'zolar uchun belgilangan talablarga muvofiq kelgan Kuzatuv kengashi a'zosi e'tirof etiladi.

11.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi sifatida saylanishi uchun, qonunchilik hujjatlari bilan mustaqil a'zolik uchun belgilangan talablarga mos keluvchi quyidagi shaxslar taklif qilinishi mumkin:

- professional jamiyatlar yoki tashkilotlarning a'zolari bo'lgan shaxslar;
- oliy ta'lim va/yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining xodimlari;
- ushbu jamiyat bilan bog'liq bo'lmagan (affillangan bo'lmagan) boshqa tashkilot va korxonalarining rahbarlari hisoblangan, korporativ qonunchilikni biladigan hamda korporativ boshqaruv usullari va tamoyillaridan xabardor bo'lgan shaxslar;
- so'nggi uch yil mobaynida nafaqada bo'lgan, ushbu jamiyatda uzoq vaqt ishlagan va korxonani boshqarish sohasida katta tajribaga ega bo'lgan shaxslar;
- moliyaviy tahlil o'tkazish, strategik rejalashtirish bo'yicha tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan chet el mutaxassislari.
- Kuzatuv kengashi a'ziligiga mustaqil nomzodni ko'rsatish jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foizga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan amalga oshiriladi.

11.4. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi boshqa a'zolar bilan bir xil vazifalarni bajarib, qarorlar qabul qilinishida mustaqillik tamoyilini ta'minlaydi.

XI. Yakunlovchi qoidalar

12.1. Mazkur Nizom jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi.

12.2. Korporativ kotibiyat mudiri tomonidan kuzatuv kengashi qarorlari (bayonnomalari)ni, kuzatuv kengashi raisi buyruqlarini, kuzatuv kengashidan chiqadigan/kiradigan xatlarni ro'yxatga olish daftarlari yuritiladi.

12.3. Korporativ kotibiyat mudiri zarur xollarda kuzatuv kengashi qarorlari (bayonnomalari), kuzatuv kengashi raisi buyruqlaridan ko'chirma berishi mumkin.

12.4. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar jamiyat aksiyadorlari va jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan kiritilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Nizomning ayrim bandlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, Nizomga o'zgartirish kiritilgunga qadar jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari O'zbekiston Respublikasi amaldagi Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ish yuritadilar.